

# **DUKKAKLI-DON EKINLAR HAYOTIDA MIKROELEMENTLARNING AGROKIMYOVII VA FIZIOLOGIK ROLI**

Kubayeva Munira Toshmurodovna

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, mosh (*Phaseolus aureus*) vegetasiya davrida tuproqda 50-100 kg/ga biologik azot va organik moddalar to'plab, yerning tabiiy unumdoorligini oshirishi bilan birga oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan shifobaxsh don beradigan ekin hisoblanadi (Balashov N.N., Zeman G.O., 1981; Jumayev Z., Sirimov A., 1995; Kogay M.T., 1973; Oripov R., Xalilov N., 2006; Pilov A.P., 1978; Ernazarov I., 1998; Mirzovaliyev M., 1983; Xalikov B.M., 2007).

Shunga qaramasdan respublikamiz tuproqlarida ang'izda mosh yetishtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha bo'lmay, uni ang'izda yetishtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish masalasi muammoligicha qolmoqda.

Mamlakatimiz sug'oriladigan yerlarining asosiy qismini g'o'za va boshoqli don ekinlari egallab turgan sharoitda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yanada ko'paytirishga erishishda takroriy ekinlar yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ham tuproq unumdoorligini oshiruvchi va yuqori sifatli oziqa manbai sifatida moshni g'o'za va boshoqli don ekinlari almashlab ekish tizimida kuzgi bug'doy ang'izida o'stirish, Samarqand viloyatining karbonatli sho'rangan tuproqlari sharoitida molibden mikroelementining o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga ega dolzarb muammolardan hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tajriba obyekti – Samarqand viloyati sharoti uchun Davlat reyestriga kiritilgan moshning "Radost" navi. Tadqiqotning predmeti - ang'izga ekilgan moshning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi.

**Tadqiqotning maqsadi** Samarqand viloyatining karbonatli sho'rangan tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy ang'izida takroriy ekin sifatida mosh yetishtirishda molibden mikroelementini turli usullarda q'llashning o'simlikni o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va don sifatiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

## **Tadqiqotning vazifalari:**

- urug'larning unib chiqishi, o'suv davrining davomiyligi hamda dukkaklarning shakllanishiga molibden mikroelementini turli usullarda q'llashning ta'sirini aniqlash;
- kuzgi bug'doy ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan moshning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga molibden mikroelementini turli usullarda q'llashning ta'sirini o'rganish;
- ang'izda takroriy ekin sifatida yetishtirilgan moshning don soni, salmog'i va sifatining o'g'itlash usullariga bog'liqligi;
- kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirilgan mosh ildizining tunganaklar hosil qilishi va organik massa to'plash darajasini aniqlash;
- kuzgi bug'doy ang'izida makro- va mikroo'g'itlar fonida mosh yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Ilmiy yangiligi.** Samarqand viloyatining magniy karbonatli tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy ang'izida mosh yetishtirishda molibden mikroelementini turli usullarda q'llashning o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri o'rganildi va miroo'g'itni q'llash yuzasidan ishlab chiqarishga tavsiyalar berildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Samarqand viloyatining magniy karbonatli sho'rangan tuproqlari sharoitida mosh kuzgi bug'doy ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirishda molibden mikroelementining o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri hamda ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlik aniqlanadi, shu asosda molibden mikroelementini maqbul q'llash usuli tavsija qilinadi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha abdiyotlar sharhi (tahlili).** Mosh ekini donining oziqalik qiymati yuqoriligi va tuproq unumdoorligini oshirishi sababli undan dehqonchilikda foydalanish masalasi olimlar e'tiborini ilgaridan o'ziga jalb etib kelgan.

Samarqand viloyati sharoitida tuproq tarkibidagi mikroelementlar miqdori, mikroo'g'itlarning turli ekinlardagi samaradorligini ko'pchilik tadqiqotchilar o'rghanishgan (Rish M.A., 1961, 1964; Xodjayev D.X., 1968; Xoshimov F.X., 1971; Isayev B.M., 1979; Kruglova Ye.K. va boshq, 1984; Karimberdiyeva A.A., 2000; Rajabov A., 2002, 2003; Xoshimov F.H., Sanaqulov A.L., 2017).

Mikroelementlarning agrokimyoviy va fiziologik roli nihoyatda katta. Ular o'simlikda moddalar almashinuvini yaxshilaydi, o'simliklarda sodir bo'ladi fiziologik-biokimyoviy jarayonlarning maromida kechishini ta'minlaydi, xlorofillning sintezlanish jarayoniga ta'sir etadi va fotosintez intensivligini oshiradi. Muhitning noqulay sharoitlari, xususan tuproqda namlik tanqisligi, past va yuqori harorat, qishki qattiq sovuqlar va boshqa holatlarda mikroelementlar ta'sirida o'simliklarning zamburug' va bakterial kasalliklarga chidamligi ortadi.

Molibden tiganak bakteriyalarga va dukkakli ekinlar bilan kuchli simbioz ta'sirlashadigan Azotobacter va Clostridum bakteriyalariga azotning fiksatsiyasidagi zaruriy o'ziga xos biokatalizator komponenti hisoblanadi. O'simliklarga nitrat azotining o'zlashtirish jarayonida va niratlar reduksiyasida ushbu elementning roli nihoyatda katta. Nitratli oziqalanishda o'simliklarning molibdenga talabi ortadi (V.N.Kemat, 1983; Anspok, 1990).

Bor plazma kalloidlarining fizik-kimyoviy xossalariiga ta'sir etadi: cuvsizlanish pasayadi, yopishqoqlik oshadi, plazmaning o'tkazuvchanligi kamayadi, hujayrada gidrofil kalloidlar – oqsillar va nukleoproteidlar ijobiy ta'siri namoyon bo'ladi: noqulay ob-havo sharoitida qurg'oqchilikka, sovuqqa, issiqlqa va sho'rga chidamliligi oshadi (Shkolnik, 1974; R.S.Marohar, M.R.Sajpai, 1983).

Bor o'simliklarning mineral oziqa elementlar ta'minotida ishtirok etadi. Uning yetishmasligi natijasida o'simlikning o'sayotgan yosh organlariga barcha oziqa elementlar harakatlanishi u yoki bu darajada qiyinlashadi. Borning o'simlikka ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri tuproqda mineral oziqa elementlar o'rtasidagi optimal nisbatining buzilishida namoyon bo'ladi, bu uning oksidlanish-qaytarilish jarayoniga ta'sirlashishi bilan bog'liq (Shkolnik, 1963; Sagarayeva E.A., 2004).

V.V.Yakovleva (1956) ma'lumotlarga ko'ra, yarim mikroo'g'itlar (PMU) tarkibidagi bor, molibden va rux mikroelementlar gorox ildizi va urug' pallalaridagi peroksidaza va polifenoloksidaza fermentlarining faolligini oshirgan.

Ayrim mikroelementlar molekulyar azotni fiksasiya qilishni kuchaytirishni ta'minlaydi, buning esa amaliy ahamiyati nihoyatda katta. Bundan 80 yil oldin H.Bartels Azotobacter chroococcum bakteriyasi orqali molekulyar azotning fiksasiya qilinishida molibdenning roli nihoyatda katta ekanligi isbotlagan. Birozdan so'ng ushbu mualliflar anaerob azotfiksasiyalovchi Clostridum pasterianum bakteriyasi molibden ishtirokida bo'linishini aniqlashgan. Keyingi o'tkazilgan tadqiqotlarda esa ushbu jarayonda mis, bor, vanadiy, volframning ahamiyati borligi aniqlangan. Bundan vanadiy va volfram molibdenning o'rmini qisman bosishini ta'kidlash mumkin (Ye.N.Mishustin, V.T.Yemsev, 1987).

Molekulyar azotning tiganak bakteriyalar yordamida fiksasiya qilinishida, ya'ni atmosfera azotini o'zlashtirishdagi degidrogenaza fermenti faolligini oshirishda molibden ijobiy ta'sir ko'rsatadi, faollahgan vodorodning kelib turishini ta'minlaydi.

Molibden va mis dukkakli ekinlar tiganaklarida aminokislota va oqsil sintez bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bor, mis, rux kabi mikroelementlarning yetishmasligida oqsil sintezi uchun zarur bo'lgan erkin aminokislolar miqdorining sezilarli kamayishiga olib keladi.

M.Qo'chqorova, A.Toshtemirov, A.Sanaqulov (2014) ma'lumotlariga ko'ra, molibden ta'sirida dukkaklilar ildizida nafaqat tiganaklar miqdori ko'payadi, balki nitratlar ammiakkacha qayta tiklanadi. Molibden ta'sirida o'simlikda uglevod, karotin va askorbin kislotasi miqdori ko'payadi. Oqsil moddalar miqdori nafaqat dukkakli ekinlarda, balki dukkakli bo'limgan ekinlarda ham oshadi, lekin dukkakli ekinlarda u ko'proq to'planadi. Molibden ta'siri natijasida o'simlikda xlorofill miqdori ko'payadi va fotosintez intensivligi oshadi. Dukkakli ekinlarda molibden yetishmasligi alomatlari azot tanqisligi alomatlari bilan analogik hisoblanadi. Bunda atmosfera azotining fiksasiyasi sustlashadi, o'simlik barglari och yoki sarg'ish yashil tusga kiradi, poyasi qizg'ish qo'ng'ir tus oladi, ildizda tiganaklar maydalashadi va kulrang, qo'ng'ir ranga kiradi. Molibden yetishmasligida pastki barglar ola-chipor, shuningdek, nekroz va buralish kabi alomatlarni namoyon qiladi (M.V.Katalimov, 1965).

Bir qator mikroelementlar fotosintezga ijobiy ta'sir etadi, masalan, bor, rux, molibden va boshqalar fotosintez aktivligini oshiradi. Shunday mikroelementlar borki, masalan, mis, molibden, bor, marganes, kobalt o'simlik bargida xlorofill sinteziga ijobiy ta'sir etadi va kechasi uning sarflanishini kamaytiradi.

Mikroelementlar ta'sirida fotosintezning birlamchi mahsuloti – uglevodlar miqdori o'zgarishi aniqlangan.

Dukkakli ekinlar ildizlarida tiganaklar rivojlanishida bor muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq muhitda bor yetishmaganda tiganaklar kuchsiz rivojlanadi yoki umuman rivojlanmasligi ham mumkin. M.Drake, D.G.Sieling (1941) o'z tadqiqotlarda dukkakli ekinlar tiganaklarining anatomik tuzilishini o'rganishgan, bor tanqisligida tiganaklar tuzilishi me'yorida bo'lмаган. Bu esa bakterioz tolalar deyarli rivojlanmaganligi va traxeidlар o'simlikning ildiz tiganaklari bilan bog'lanmaganligidan dalolat beradi. Natijada bu bakteriyalar o'simlikni oziq material bilan ta'minlay olmaydi, o'simlik va tiganak bakteriyalarining simbiozi buziladi.

Bor bilan o'g'itlangan tuproqlarda sebarganing gullashi tezlashganligi, boshchalar soni va o'lchami ortganligi, urug'larning pishishi tezlashganligi hamda urug'larning boshchadagi soni ortganligi adabiyotlarda keltirilgan. Demak, bor o'simlik hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

1930 yilda H.Bortels birinchi bo'lib, atmosfera azotini fiksasiya qilish jarayonida azotobakterning rolini aniqlangan. Bu bakteriya toza muhitda juda yomon rivojlanadi va molibden bilan ishlov berilmagan holatda atmosfera azoti o'zlashtirilmaydi, darvoqye bu jarayonning intensivligi va birikadigan azot miqdori o'simlikning molibdenli oziqlanishi bilan bog'liq. Dukkakli ekinlar tiganak bakteriyalariga azotning birikishi faqatgina tuproqdagagi molibden miqdoriga ko'ra ro'y beradi.

B.M.Neklyudovning (1965) aniqlashicha, qumli muhitda (qum kulturasida) molibdensiz gorox ildizlarida tiganaklar umuman rivojlanmagan. Oziqa muhitiga 0,001 % li ammoniy molibdat eritmasi qo'shilganda atmosfera azotining fiksasiya qilinishi nazoratga nisbatan 600-700 % ga oshgan. Bundan tashqari, azotogenga xuddi shu konsentrasiyadagi molibden qo'shilganda azotobakterning hayot sharoiti va azotogen sifati yaxshilangan. Molibden ta'sirida gorox ildizlarida mikroorganizmlar miqdori oshganligi o'tkazilgan tahlillarda aniqlangan.

Dukkakli ekinlar atmosfera azotini nafaqat Azotobacter chroococcum, balki Azotobacter ning boshqa turlari orqali assimilyatsiya qilishida molibdenni ko'plab talab qiladi. Shuningdek, tuproqning anaerob Clostridum bakteriyasi orqali azot fiksasiya qilinishda ham molibden zarur.

Nitrat tarkibiga kiruvchi Aspergillus o'stirish sharoitida molibdenning fiziologik roli (atmosfera azotini fiksasiya qilishdan tashqari) muhimligi R.A.Steinberg tadqiqotlarda birinchi bo'lib o'rganilgan. Ushbu bakteriyalarни ammiakli azotda o'stirishda reaksiyaga molibden qo'shilganda molibdenni ko'p miqdorda talab qilmasligi aniqlangan.

Shundan so'ng, atmosfera azotini biologik fiksasiya qilishda molibdenning roli chegaralanmaganligi aniqlangan. Dukkakli bo'lмаган ekinlar uchun ham molibdenning ahamiyati katta.

B.M.Neklyudovning (1970), J.Prasad, H.Ram (1984), O.B.Stolyarov (2005) aniqlashicha, molibden ta'sirida nafaqat dukkaklilar ildizida tiganaklar miqdori ko'payadi, balki nitratlar ammiakkacha qayta tiklanadi. Molibden ta'sirida o'simlikda uglevod, karotin va askorbin kislotasi, xlorofill miqdori ko'payadi va fotosintez intensivligi oshadi.

Barcha madaniy ekinlar ruxga munosabatiga ko'ra 3 guruha bo'linadi: juda ta'sirchan, o'rtacha ta'sirchan va ta'sirchan bo'lмаган ekinlar. Juda ta'sirchan ekinlarga – makkajo'xori, zig'ir, xmel, tok, mevali daraxtlar; o'rtacha ta'sirchan ekinlarga – soya, fasol, xashaki dukkaklilar, gorox, qand lavlagi, kungaboqar, sebarga, piyoz, kartoshka, karam, bodring, rezavor mevalilar; ta'sirchan bo'lмаган – suli, bug'doy, arpa, javdar, sabzi, sholi, beda hisoblanadi (Anspok, 1990).

Rux tanqisligidan gorox, dukkak, suli, sebarga, beda va boshqa ko'pchilik ekinlar ham aziyat chekadi. Buning natijasida barglari maydalashadi va buralib qoladi, barglari och yashil tusga o'tadi yoki tomirlari orasi xlorozga uchraydi.

Hozirgi vaqtida tiganak bakteriyalarining azotfiksasiya jarayonini kuchaytirish uchun kobaltni zaruriy element deb hisoblash mumkin. U tiganakda uchraydigan B<sub>12</sub> vitamini tarkibiga kiradi. Kobalt gidrogenaza fermenti aktivligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek dukkakli ekinlar tiganaklaridagi nitratreduktaza aktivligini oshiradi.

Demak, mavjud adabiyot ma'lumotlari asosiyda aytish mumkinki, mikroelementlar bu – tirik organizmlarga juda kam miqdorda zarur bo'ladigan kimyoviy moddalardir, ularsiz o'simliklar yaxshi rivojlanmaydi va mahsuldorligi past bo'ladi. Bu shundan dalolat beradiki, mikroelementlar fermentlar, vitaminlar va garmonlar tarkibiga kiradi, o'simlik organizmida nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan loviya yetishtirishda uning mikroelementlarga bo'lgan talabi, qulay mikroo'g'itlar ta'sirida yuqori va sifatli hosil olish muhim vazifalardan hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вайс Т.П., Шукурова С.С., Тўхтаев С, Ниёзалиев Б.И., Тожиев С.М. Маҳаллий хом ашё асосида яратилган фосфорли ўғитлар тупроқ унумдорлигини ва ҳосилдорликни ошириш омилидир // Пахтачилик ва Дончиликни ривожлантириш муаммолари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Тошкент, 2004. - Б. 54-57. 52.
2. Вайс Т.П., Акбарова М.Г., Тожиев С.М., Назирова Р.М. Одинарное и сложное удобрения из Кызылкумских фосфоритов и калийных руд Тюбегатана // Дехқончилик тизимида зироатлардан мўл ҳосил етиштиришнинг манба ва сув тежовчи технологиялари. - Тошкент. 2010. - Б. 247-249. 53.
3. Вайс Т.П., Таджиев С.М., Махсудова З.И., Алланов А.Б., Ниязалиев Б.И. Сложное удобрение из Кызылкумских фосфоритов // Дехқончилик тизимида зироатлардан мўл ҳосил етиштиришнинг манба ва сув тежовчи технологиялари. - Тошкент. 2010. - Б. 252-255. 54.
4. Кузиева А. Влияние различных форм фосфорных удобрений на агрохимические свойства сероземно-оазисных почв и урожайность хлопчатника // Автореф. дис. ... канд. с.-х. наук. - Т.: 1990. - 24 с. 55.
5. Мамасолиева Л.Э., Мячина О.В., Алиев А.Т., Яковлева И.А., Ким Р.Н., Исакова Д.Х. Изменение процессов минерализации и гумификации в сероземной почве под влиянием новых фосфорных удобрений // Тупроқ унумдорлигини оширишнинг илмий ва амалий асослари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Тошкент, 2007. I-қисм. - Б. 122-125. 56.
6. Машрабов М.И., Хайтов М.А., Хошимов Ф.Х. Турли ўғит меъёрларининг тупроқ таркибидағи ҳаракатчан фосфор миқдорига боғлиқлиги. // Агротехнология. Тошкент, 2013. - № 3 (27). - Б. 66-67. 57. Машрабов М.И., Хайтов М.А. Тупроқ фосфат режими ва ғўзанинг ўсиши-ривожланишида комплекс ўғитларнинг таъсири. // Агротехнология. Тошкент, 2015. - № 4 (36). - Б. 12-13.